



O'RTA ASR VA UYG'ONISH DAVRI INTERYERI

*Renessans ta'lim universiteti
Axborot texnologiyalari kafedrasida assistenti
Yuldashova Nodira Izzatullayevna*

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'rta asr va Uyg'onish davridagi interyer san'ati tahlil qilinib, ushbu davrlarning o'zaro taqqoslamasi, estetik qarashlari, uslubiy yondashuvlari, bezak elementlari, me'moriy yechimlari va zamonaviy interyer dizayniga ko'rsatgan ta'siri yoritilgan. Shuningdek, bu davr interyerlarining ijtimoiy, diniy va madaniy funksiyalari, ularning rivojlanish bosqichlari tarixiy dalillar asosida tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Interyer, o'rta asr, uyg'onish, me'morchilik, gotika, roman uslubi, renessans, klassitsizm, mahobatli san'at, freska, ustunlar, simmetriya, dekorativ san'at, antik me'ros.

O'rta asr interyeri insoniyat tarixining eng ko'p o'zgarishlarga uchragan bosqichlaridan biri bo'lib, bu davrda diniy va feodal tuzum hukmronligi asosida shakllangan estetik qarashlar interyer dizayniga bevosita ta'sir ko'rsatgan. Yevropaning ko'plab mamlakatlarida interyer san'ati cherkov, monastir va qal'a inshootlari orqali rivojlangan.

O'rta asr va Uyg'onish davri interyer san'ati insoniyat tarixining ikki muhim bosqichini aks ettiradi, bu davrlar ijtimoiy, madaniy va dini hayotdagi tub o'zgarishlarni o'zida mujassam etgan. Dastlabki bosqichlarda interyerlar sodda, ma'nodagi asosiy urg'u funktsionallik va diniy ramziylikka qaratilgan bo'lsa-da, keyinchalik bu yondashuv asta-sekin dekorativlik, mohobatli bezaklar, ma'naviy-estetik qadriyatlar bilan boyitildi. Roman uslubi interyerda og'ir, mohobatli va ichki interyerni tor his qiladigan strukturalarni yaratdi.

O'rta asr interyeri diniy asoslarga tayangan holda shakllangan bo'lib, Rim imperiyasi qulaganidan so'ng Yevropaning turli hududlarida cherkov, monastir va qal'alar asosiy binolar hisoblangan. Interyerda asosiy urg'u diniy timsollar va marosimlarga qaratilgan bo'lib, bu estetikada Roman uslubi va keyinchalik gotika muhim rol o'ynagan.

Roman uslubida interyerlar tor, qalin devorli, kam derazali va salobatli ruhda bo'lgan. Ular asosan toshdan ishlanib, ichki makon salobati va xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan. Gotika uslubi esa interyerga yangi estetiklik olib kirdi: yengil va baland binolar, vitrajli katta derazalar, cho'qqili arkalar, ustunlar va rangli bezaklar asosiy elementlarga aylandi. Bu uslub ichki interyerni ruhiy yuksalish va ilohiy nurning timsoli sifatida taqdim etadi.



1-rasm. O'rta asr Roman uslubidagi interyer ko'rinishi.

Gotik interyerlar ko'p holatda cherkovlarda kuzatiladi, bunda yorug'lik muhim ifoda vositasi bo'lgan. Uyg'onish davrining boshlanishi bilan interyer san'atida tub burilish yuz berdi. Bu davrda



inson va uning estetik qarashlari dizayn markaziga chiqdi. Klassik antik madaniyatga murojaat qilish, tafakkur va ilm-fanning o'sishi, shaxsga e'tibor uyg'onish interyerlarida o'z aksini topdi. Interyerlar kengaytirildi, ularga nafasat, aniqlik, klassik proporsiyalar, simmetriya, ustunlar tizimi va freskalar kiritildi. Interyerda marmar, yog'och, gips, bronza kabi materiallar keng qo'llanilgan. Kaminlar markaziy rolni bajargan, mebel esa nafaqat qulaylik, balki nafislik va san'at asari sifatida baholangan. Kursi, kreslo, shkaf va stollar o'ymakor naqshlar, hayvonlar yoki inson shaklidagi oyoqlar bilan bezatilgan.

Fransiyada Uyg'onish interyeri gotik uslubdan klassitsizmga o'tish bosqichini ifodalagan, unda nafislik, yengil shakllar va geometrik aniqlik muhim ahamiyat kasb etgan. Italiyaning Florensiya va Rim shaharlarida esa interyerlar mohobatlilik, barokko uslubiga xos boylik va klassik naqshlar bilan to'yingan. Pol va shiftlar uyg'unlikda ishlangan, shiftlar odatda freska bilan bezatilgan, pol esa marmar, keramika yoki mozaik shakllarda ishlangan.

Uyg'onish davri interyeri o'zining muvozanatli shakli, geometrik aniqligi, ranglar uyg'unligi bilan ajralib turadi. Interyerda foydalanilgan har bir element – mebel, yoritgichlar, rasmlar, devor panellari, bezaklar o'zaro uyg'un holda joylashtirilgan. Bunday yondashuv inson ruhiyatiga estetik zavq ulashish va muhitda uyg'unlik yaratishga qaratilgan.



2-rasm. O'rta asr Gotika uslubidagi interyer ko'rinishi.

O'rta asr interyerida amaliylik ustuvor bo'lsa, Uyg'onish interyerida nafislik va zamonaviylik muhim bo'lgan. Diniy markazlar o'rniga saroylar, hovlilar, kutubxonalar va shaxsiy turar-joylar interyer dizaynining diqqat markaziga aylangan. Interyer ranglarida ham farqlar mavjud: O'rta asrda ko'k, bordo, kulrang kabi og'ir ranglar, Uyg'onishda esa ochiq, yorqin va tabiiy ranglar afzal ko'rilgan.

Uyg'onish davri interyerida shuningdek ko'zgular, zarhal ramkalar, mohobatli haykallar va suyakdan ishlangan bezaklar ham keng qo'llanilgan. Interyerda oyna joylashuvi yorug'likni maksimal darajada oshirishga qaratilgan, bu esa psixologik jihatdan kenglik va osoyishtalik hissini uyg'otgan. Bunday yondashuv zamonaviy interyer dizaynida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Interyer san'ati orqali Uyg'onish davri kishisi dunyoni estetik va intellektual tarzda idrok etishga intilgan. Bu interyerlar orastalik, tartib, aql va san'at uyg'unligining mahsulidir. O'rta asr interyerida diniy ifoda markazda bo'lsa, Uyg'onishda inson va uning go'zallikka intilishi asosiy



tamoyilga aylangan. Uygʻonish interyer sanʻati Yevropa boʻylab tarqalib, keyingi barokko va rokokko uslublarining shakllanishiga zamin yaratgan. Bugungi kunda klassik interyer yondashuvida Oʻrta asr va Uygʻonish davridan olingan bezaklar, ustunlar, simmetrik kompozitsiyalar, freskalar, tabiiy materiallar ishlatilmoqda.

Yevropa, Rossiya, hatto Osiyodagi koʻplab zamonaviy uylar va binolar interyerida Uygʻonish estetikasiga asoslangan elementlar mavjud. Koʻplab dizaynerlar bu uslubga murojaat qilib, tarixiy shakllarni zamonaviy texnologiyalar bilan uygʻunlashtirishga harakat qilmoqda. Bu esa tarixiy meʻrosning hozirgi davrga taʼsirini yana bir bor isbotlaydi. Interyer tarixini chuqur oʻrganish dizaynerlar, meʻmorlar va sanʻatshunoslar uchun muhim nazariy asos boʻlib xizmat qiladi. Uygʻonish interyer sanʻati, ayniqsa Italiyadagi Florensiya va Venetsiya maktablari tajribasi zamonaviy klassik interyer dizaynining fundamental manbai hisoblanadi.



3-rasm. Uygʻonish davr uslubidagi interyer koʻrinishi.

Oʻrta asr va Uygʻonish davri interyeri orqali insoniyat tarixining madaniy taraqqiyot bosqichlari, estetik qarashlari, dunyoqarashi haqida chuqur tasavvurga ega boʻlish mumkin. Ushbu interyerlar sanʻat, arxitektura va dizayn sohalarining oʻzaro uygʻunligining yaqqol namunasi boʻlib, ular bugungi kunda ham oʻz ahamiyatini yoʻqotmagan.

Zamonamiz dizaynerlari uchun ushbu davr interyeri katta ilhom manbai boʻlib xizmat qiladi. Yevropa meʻmoriy meʻrosida Oʻrta asr va Uygʻonish davri interyeri koʻplab zamonaviy muzey, mehmonxona va saroy interyerlarini yaratishda asos boʻlmoqda. Ayniqsa klassik interyer yoʻnalishida ustunlar, simmetriya, pastel ranglar, antik shakllar va mohobatli elementlar aynan ushbu davr yodgoridir.



4-rasm. Uygʻonish davr uslubidagi interyer koʻrinishi.

Bugungi interyerlarda bu elementlar zamonaviy talqinda qayta ishlanmoqda: masalan, gipsli shiftlar, dekorativ panellar, marmar pol, bronza rangdagi dekorlar, rang-barang freskalar va klassik mebellar orqali uygʻun muhit yaratilmoqda. Xulosa qilib aytganda, Oʻrta asr va Uygʻonish interyer sanʼati insoniyat madaniyatining buyuk bosqichlarini ifoda etadi. Bu davrlar interyer estetikasi va funksional dizayni oʻzaro uygʻunlashgan, shakl va mazmun bir-birini toʻldirgan, bezak va tuzilma ichki makonning ruhini yaratgan. Bugungi dizayn nazariyasi va amaliyotida bu qadimiy tajribalarning qadri baland boʻlib, ularni oʻrganish va tadbiq etish zamonaviy madaniyatimizga estetik va tarixiy chuqurlik olib kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Арганьяни Л. Архитектура и интерьер Средневековья и Ренессанса. М.: Искусство, 1990.
2. Гобри М. Готика и Ренессанс в интерьере. СПб: Азбука-классика, 2005.
3. Панофский Э. Ренессанс и ренессансы в западном искусстве. М.: Логос, 2010.
4. Lotz W. Architecture in Italy, 1500–1600. Yale University Press, 1995.
5. Ackerman J. The Architecture of Michelangelo. Penguin Books, 1986.
6. Филонов Ю. История интерьера. М.: Прогресс-Традиция, 2008.
7. Якупова Н. Интерьер dizayni tarixidan lavhalar. Toshkent: Sanʼat, 2019.
8. Коеппе W. Renaissance Interior Design: European Furniture and Decoration 1500–1800. MET Museum, 2014.
9. Smith P. The Gothic Cathedral: Origins of Gothic Architecture and the Medieval Concept of Order. Princeton University Press, 2004.
10. Lavin M. High Renaissance Art in St. Peter's and the Vatican: An Interpretive Guide. Yale University Press, 1999.